

19-Yaponiya xalqaro manga mukofoti Ishtirokchilar uchun qo'llanma

1. Maqsad

Chet elda manga san'atini targ'ib qilish va manga orqali xalqaro madaniy almashinuvni rivojlantirish.

2. Sovrinlar

(1) 19-Xalqaro Manga mukofotining Oltin mukofoti eng yaxshi asarga taqdim etiladi. Yuqori saviyadagi uchta asar kumush, o'n bitta asar esa bronza mukofotiga sazovor bo'ladi. Oltin va kumush medallar sohiblari sertifikatlar va trofeylar bilan, bronza medallar sohiblari esa sertifikatlar bilan taqdirlanadi.

(2) Kumush mukofotiga loyiq bo'limgan, ammo Bronza mukofotiga sazovor bo'lgan boshqa yuqori baholangan ishlar maxsus rag'batlantiruvchi mukofot bilan taqdirlanadi. Maxsus rag'batlantiruvchi mukofot sovrindorlari sertifikatlar bilan taqdirlanadi.

(3) Qo'shimcha mukofot sifatida Oltin va Kumush medal sohiblari taqdirlash marosimida qatnashish uchun taxminan 7 kunga Yaponiyaga taklif qilinadi (Ushbu qaror maxsus rag'batlantirish mukofoti va bronza mukofoti sovrindorlariga taalluqli emas).

3. Ishtirok etish shartlari

(1) Taqdim etilgan ish 16 sahifadan ortiq bo'lishi kerak. Oldingi Manga tanlovlari mukofotlangan ishlar bundan mustasno bo'lib, qolgan barcha nashr etilgan va nashr etilmagan asarlar qabul qilinadi.

(2) Faqat oxirgi uch yil (2022-yildan 2025-yilgacha) ichida yaratilgan ishlar tanlovda ishtirok etishga qabul qilinadi.

(3) Taqdim etilgan asar uchinchi shaxslarning intellektual mulk huquqlarini buzmasligi kerak.

(4) Taqdim etilgan asar muallifning shaxsiy ijodi bo'lishi kerak. Syujetning asosiy qismi, kompozitsiya, chizma va boshqalar sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan ishlar qabul qilinmaydi. Biroq, ishning ayrim qismlari uchun qo'shimcha material sifatida sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan tasvirlardan foydalanish mumkin. Agar sun'iy intellektdan foydalanilgan bo'lsa, arizangizni topshirishda sun'iy intellektga tegishli qism ko'rsatilishi kerak.

(5) Ishlar elektron shakl (PDF) da topshirilishi kerak. Qog'ozda bajarilgan ishlar skaner qilinishi yoki rasmga olinishi va PDF formatida taqdim etilishi kerak.

(6) Har bir ishtirokchidan faqat bitta ariza qabul qilinadi. Agar bir nechta asarlar ketma-ket taqdim etilsa, faqat birinchisi ko'rib chiqiladi. Ishlar takrorlangan taqdirda, ikkinchi va undan keyingi ishlar haqiqiy emas deb hisoblanadi.

4. Ariza beruvchi

(1) Taqdim etilgan asarning komiks muallifi yoki hikoya muallifi Yaponiya fuqarosi bo'lmasligi kerak. Oltin/Kumush mukofoti sovrindorlarni taqdirlash uchun Yaponiyada o'tkaziladigan marosimga taklif qilish dasturida ishtirok etadigan vakil ham Yaponiya fuqarosi bo'lmasligi kerak.

(2) Ariza beruvchi taqdim etilgan asarga mualliflik huquqi va boshqa qonuniy huquqlarga ega bo'lishi va Yaponiya Xalqaro manga mukofoti Ijroiya qo'mitasiga undan foydalanish huquqini berish uchun qonuniy vakolatga ega bo'lishi kerak.

(3) Agar manga asarining mualliflik huquqi egasi arizaga rozi bo'lsa, Yaponiyadan tashqaridagi nashriyot kompaniyalari Yaponiya xalqaro MANGA mukofotiga ariza topshirishlari mumkin.

(4) Yaponiya xalqaro MANGA mukofoti Ijroiya qo'mitasi taqdim etilgan asarlarning hammasini yoki bir qismini notijorat maqsadlarda foydalanish (ko'paytirish, tarjima qilish, namoyish qilish va

ommaviy tarqatish) uchun ishlatadi. Ariza beruvchi ushbu materiallardan bepul va noma'lum muddatga foydalanishga ruxsat beradi.

(5) Ariza beruvchi taqdim etilgan asl asar qaytarilmasligiga va davlat idoralarida yoki boshqa joylarda sovg'a qilinishi yoki namoyish etilishi mumkinligiga rozi bo'ladi.

(6) Mukofotni topshirayotganda, oluvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etish orqali tasdiqlanishi lozim.

5. Qanday murojaat qilish kerak

(1) Ariza topshirishning oxirgi muddati

2025-yil 17-apreldan 30-iyungacha (arizalar belgilangan sanagacha qabul qilinadi)

(2) Kerakli hujjatlar

Ariza topshirishda quyidagi ikkita hujjatni taqdim eting.

- Ariza shakli (Forms): Forms saytida quyidagi havola orqali to'ldiring
<https://forms.office.com/r/NuzdMHUiWp>

- Asar (Manga): Ariza shaklini ro'yxatdan o'tkazgandan so'ng ko'rsatma bo'yicha asarni yuklang. Asar elektron shaklda (PDF formatida) BIR nusxada taqdim etilishi kerak.

(3) Asarni onlayn tarzda serverga yuklanganizdan so'ng, quyidagi ko'rsatilgan manzillardan biriga quyidagi manzillardan biriga yuborilishi kerak:

- O'zbekiston Respublikasida yashovchilar uchun

Yaponiyaning O'zbekiston Respublikasidagi elchixonasi:

Toshkent-100047, Yashnobod tumani, 1-burilish, Sodiq Azimov ko'chasi, 28-uy.

(Ma'lumot uchun tel: +99878 1208076/60/61)

PDF formatidagi ishlar elektron pochta manziliga yuboriladi: homepage@ts.mofa.go.jp

- Yaponiyada yashovchilar uchun

- Ariza shakli (Forms)
- Elektron shakldagi asar (PDF)

Ariza shaklini topshirmoqchi bo'lgan nomzodlarga Yaponiya Tashqi ishlar vazirligining Madaniyat va xorijdagi jamoatchilik bilan aloqalar boshqarmasi tomonidan yuklab olish URL manzili PDF formatida taqdim etiladi.

(4) Eslatmalar

a. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishslash

Yaponiyaning Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi qonuning 69-moddasi 2-qismi 4-bandiga muvofiq qonunlar va qoidalarda yoki boshqa maxsus sabablar mayjud bo'lganda, o'z yurisdiktsiyasi doirasidagi jarayonlar yoki biznesni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hajmda Yaponiya xalqaro MANGA mukofoti Ijroiya qo'mitasi anketada ko'rsatilgan shaxsiy ma'lumotlardan mukofot oluvchi bilan bog'lanish va mukofotni tanlash va boshqarish bilan bog'liq boshqa vazifalarni bajarish uchun foydalanadi. Bundan tashqari, ma'muriy organlar, qo'shma ma'muriy organlar, mahalliy davlat hokimiyati tashkilotlari yoki mahalliy qo'shma ma'muriy organlar tomonidan foydalanish uchun o'rinni asoslar mayjud bo'lganda, qonunlar va qoidalarga asoslangan holda, shaxsiy ma'lumotlar yuqorida ko'rsatilganidan boshqacha maqsadlarda uchinchchi shaxslarga oshkor qilishi mumkin. Ariza shaklini topshirish orqali ariza beruvchi shaxsiy ma'lumotlarning yuqorida tavsiflangan tarzda qayta ishlanishiga rozilik beradi.

b. Mukofotni bekor qilish

Agar ishtirokchining mualliflik huquqiga nisbatan asosli shubha mayjud bo'lsa, masalan, uchinchchi shaxs plagiat yoki tanlovga kirish talablarining boshqa buzilishini ko'rsatsa, yakuniy natijalar e'lon qilinganidan keyin ham mukofot bekor qilinishi mumkin. Ariza beruvchi bekor qilishga e'tiroz bildira

olmaydi. Tanlovda ishtirok etish bilan bog‘liq holda uchinchi shaxslar ishtirokchiga nisbatan har qanday da’volar, talablar yoki qonuniy harakatlar bilan murojaat qilgan taqdirda, ishtirokchi bunday da’volar, talablar yoki qonuniy harakatlarga o‘z javobgarligi va hisobidan (shu jumladan sud xarajatlari) javob berishi shart.

c. Anketalarini to‘ldirish va topshirish bo‘yicha texnik ko‘rsatmalar

- Ariza (lar) ingliz yoki yapon tillarida to‘ldirilishi kerak.
- MUHIM: Elektron pochta manzili to‘g’ri kiritilishi kerak.
- Ariza topshirishda ko‘rsatilgan elektron pochta manziliga tasdiqlovchi elektron xat yuboriladi. Agar arizani yuborganingizdan keyin bir kun ichida tasdiqlovchi xatni olmasangiz, elektron pochta manzilingiz noto‘g’ri kiritilgan bo‘lishingiz mumkin. Iltimos, ariza shaklini tekshirib chiqib, qayta yuboring.
- Asarning elektron shaklini jo‘natayotganda, manga nomi hamda uning muallifning ismi va familiyasi ismi bilan nomlash lozim. (masalan: SergeyMyasnikov.pdf).
- Elektron taqdimotlar A4 qog‘ozda chop etilishi mumkinligiga ishonch hosil qiling. Ayniqsa, vertikal aylantirish formatidagi ishlar uchun rasmni mos o‘lchamdagisi A4 qog‘ozga chop etish uchun ramka ajratish kabi sozlangan tafsilotlarni taqdim eting.
- Asarning har bir sahifasida sahifa raqamlari ko‘rsatilishi kerak.
- Agar asar kitob ko‘rinishida bo‘lmasa, unda aniq ikki betlik sahifa o‘z ichiga olganini ko‘rsatish kerak.
- Mukofotga taqdirlanish uchun ko‘rib chiqilayotgan asarlar uchun qog‘oz nusxasi ham talab qilinishi mumkin.
- Asarlar istalgan tilda qabul qilinadi.

6. Ishning qaytarilishi

Taqdim etilgan ishlar nomzodlarga qaytarilmaydi. Taqdim etilgan ishlar 4.(4) bandida ko‘rsatilgan maqsadlar uchun hadya qilinishi yoki ko‘rgazmaga qo‘yilishi mumkin.

7. Asarlarni tanlash

Yaponiya Manga nashriyoti assotsiatsiyasi tomonidan barcha arizalarni birinchi ko‘rib chiqishdan so‘ng, yakuniy tanlov tartibi 19-Xalqaro Manga mukofotini baholash qo‘mitasining mas’uliyati hisoblanadi. Qo‘mita g’oliblarni aniqlaydi. Tanlov natijalari quyidagi havola orqali (<https://www.manga-award.mofa.go.jp/application/19/index.html>) va Yaponiyaning Tashqi ishlar vazirligining rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi.

8. Taqdirlash marosimi

Taqdirlash marosimi taxminan 2026-yil fevral oyining oxiridan mart oyi boshigacha Tokioda bo‘lib o‘tadi.

9. Murojaat uchun aloqa ma’lumotlari

Yaponiya Tashqi ishlar vazirligi Madaniy almashinuvlar va xalqaro jamiyat bilan aloqalar bo‘limi: jp.manga-award@mofa.go.jp